

O'ZBEK YOZUVI TARIXI VA UNING RIVOJLANISHI HAQIDA AYRIM
MULOHAZALAR

San'atova Nishona

Buxoro davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15204133>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek yozuvining tarixiy rivojlanishi, uning turli davrlarda qanday o'zgarganligi, arab, lotin, kirill alifbolarining qabul qilinishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o'zbek yozuvining taraqqiyoti va uning jamiyatdagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yozuv, til, yozuv tarixi, klinopis yozuvi, oromiy yozuv, yozuv, yozuv taraqqiyoti.

Аннотация. В данной статье анализируется историческое развитие узбекской письменности, как она менялась в разные периоды и как повлияла на принятие арабского, латинского и кириллического алфавитов. Также в статье говорится о развитии узбекской письменности и ее месте в обществе.

Ключевые слова: письменность, язык, история письменности, клинопись, арамейское письмо, письменность, развитие письменности.

Abstract. This article analyzes the historical development of the Uzbek script, how it changed in different periods, and how it influenced the adoption of the Arabic, Latin, and Cyrillic alphabets. The article also talks about the development of Uzbek writing and its place in society.

Key words: writing, language, history of writing, cuneiform writing, Aramaic writing, writing, development of writing.

Yozuv insoniyat tarixidagi eng katta ixtirolardan biridir. Yozuv bilimlarni avloddan avlodga yetkazish vazifasini bajaribgina qolmay fikr almashishda, kommunikatsiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Biz yozuv orqali tarixni turli zamonlardagi insonlarning yashash tarzi, hayotini, ilm-fanni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Har bir yozuv davri tili va madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yozuvning tarixi uzoq va murakkab. U insoniyat rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi. Yozuv tilning ifodasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Agar yozuv bo'lmaganda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy namunalarni yetib kelmagan bo'lar edi. Hozirgi kunda yozuvning roli ham ta'sir doirasi ham kengayib bormoqda. Yozuv o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.

U insoniyatning fikrini yetkazish talabi va ehtiyoji asosida yaratilgan. Demak, yozuvning asosiy vazifasi nutqni uzoq masofaga yetkazish va keyingi avlodlarga qoldirish uchun xizmat qilishdan iborat. Uning asosiy vositasi esa garfik belgi.

Dunyoda aksariyat tillar o'z yozuviga ega. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari avvalgi shakllarning takomillashib borishi natijasida yuzaga kelgan.

O'zbek yozuvi tarixi juda uzoq davrni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqi qadimda turli yozuvlardan foydalangan. O'zbek yozuvlari tarixida ishlatib kelingan asosiy yozuv sistemasini fonografik yozuv, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O'zbek xalqi oromiy, yunon, karoshta, so'g'd, xorazm, qo'shon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, runik, uyg'ur, arab yozuvi kabilardan foydalangan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududida rasmiy yozuv sifatida klinopis ya'ni mix yozuvi ishlatilgan, ayrim joylarda esa xalqaro diplomatik muomalada oromiy yozuvi qo'llanilgan[1]. Lekin mix yozuvi oson va qulay hisoblangan. Ba'zi manbalarda esa eramizdan oldingi III-I asrlarda oromiy yozuvi bilan birga yunon va karoshta yozuvi ham ishlatilgan degan ma'lumotlar bor. Keyinchalik so'g'd yozuvi qo'llanila boshlagan. Bu yozuvdan VI asrgacha foydalanilgan. II asr oxiri va III asr boshlaridan Xorazm shohi chiqargan pullarda xorazm yozuvi uchraydi. Bu yozuv oromiy yozuviga yaqin turgan. V-X asrlarda turkiy xalqlar orasida O'rxun yozuvi keng tarqalgan[3]. O'rxun yozuvi turkiy tillarning xususiyatlariga juda mos bo'lgan. Bu yozuv yodgorliklaridan bizgacha qabrtoshlarga yozilgan bitiktoshlarga yetib kelgan. Bu yozuv o'zbek xalqi XX asrgacha qo'llab kelgan yozuvlar ichida eng qulayi bo'lgan. XI asrdan keyin O'rxun yozuvi tomoman iste'moldan chiqqan.

Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Ilk yodgorliklar XVIII asr boshlarida topilgan bo'lishiga qaramay ularning o'qilishi XIX asr oxiriga qadar noma'lumligicha qolgan [2]. 1970-yillargacha turkiy yozuv milodiy VI-VII asrlarda shakllangan degan fikr yetakchi edi. 1988-yili Andijon viloyatining Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga pastdan yuqoriga yo'nalgan qadimiy turkiy bitik VII-VIII asrga oid turkiy obidalardan I-II asrgacha qadimyroqdir[3]. Bu O'rxun yozuvi yozuvning ancha keyingi takomil etgan bosqichi deyishimizga asos bo'la oladi.

O'rxun yozuvi bilan bir davrida o'zbek xalqi uyg'ur yozuvidan ham foydalanganlar.

Uyg'ur yozuvi so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u Vatanimizda XV asrgacha iste'molda bo'lgan. Mashhur "Qutadg'u bilig" ning bir nusxasi, "Hibbat ul- haqoyiq"ning bir necha nusxasi, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sining bir nusxasi ham shu yozuvda XV asrda ko'chirilib, bir to'plamga kiritilgan[1].

1469-yilda tuzilgan Umar Shayx yorlig'i uyg'urcha yozilgan. Qadimgi uyg'ur tiliga xos bo'lgan bir qancha morfologik, leksik, fonetik unsumi Navoiygacha yaratilgan barcha asarlar va yodgorliklarda uchratishimiz mumkin.

Arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvi esa VIII asrdan qo'llanila boshlagan. Deyarli 800 yil mobaynida bu yozuv uyg'ur yozuvi bilan yonma-yon ishlatib kelingan. Ammo XVI asrdan Shayboniylar hukmronligi davridan uyg'ur yozuvi iste'moldan chiqib ketgan. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridir.

O'zbeklar taxminan 1200 yil davomida arab alifbosidan foydalanganlar. Arab yozuvida o'zbek xalqining ming yillik tarixi bitilgan bo'lsa-da, bu yozuv o'zbek tili fonetikasi va tabiatiga mos kelmagan. Shuning uchun XX asr boshlaridayoq eski o'zbek yozuvini isloh qilish, uni o'zbek tiliga moslashtirish uchun harakat qilganlar. 1921-yildan lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'tish harakati boshlanadi. 1926- yil 26-fevralda Boku shahrida turkologlarning birinchi quroltoyi boshlangan. Quroltoyda turkiy xalqlarning o'z alifbolari uchun lotin yozuvini asos qilib olishlari tavsiya etilgan. 1926-1930-yildan o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalana boshlagan. Ko'p o'tmay sobiq sho'rolar davrida millatlarni tenglashtirish, millatlararo farqlarni yo'qotish harakati boshlangan va rus tilining ta'siri kuchaygan. Natijada 1940-yildan o'zbek xalqi kril alifbosi asosidagi yozuvga o'tdi.

Jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanishgan bo'lsa, shu yozuvlardan dunyoda eng keng tarqalgan yozuv lotin yozuvidir. Bu yozuvdan dunyo aholisining o'ttiz foizi foydalanadi. Shulardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrdan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi qonunni qabul qildi. Bu qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqining mustaqil xalq bo'lganligining yana bir belgisi bo'lgan. Chunki har bir mustaqil davlat o'z tili va yozuviga ega bo'lishi lozim edi. Aynan lotin yozuvining tanlangani esa bizga juda katta imkoniyatlar yaratadi. Chunki aytganimdek lotin yozuvi juda keng tarqalgan bo'lib, bizning boshqa jahon tillarini o'rganishimizga, davlatimizning jahon xalqlari bilan aloqasini osonlashtirishga xizmati katta bo'ladi.

Arab, lotin va kril yozuvlari orqali o'tgan davrlar xalqimizning siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlarni aks ettirdi. Mustaqillik yillarida esa lotin yozuviga qaytish, o'zbek yozuvining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yozuvimizning kelajakdagi istiqbollari yangi texnologiyalarni yana-da rivojlantirib, tilimiz va madaniyatimizni dunyoga tanitishda muhim rol o'ynaydi.

Yozuvning kelajagi o'zbek tilining jahon miqyosida tanilishiga yozdam beradi. O'zbek yozuvining tarixiy rivojlanishi tilimiz va milliy madaniyatimizning boyligini saqlash, uni yangi avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvning lotin alifbosiga qaytishi esa tilni jahon miqyosida keng targ'ib qilish va xorijiy manbalar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish imkonini yaratdi. Kelajakda yangi texnologiyalar va raqamli platformalar orqali o'zbek yozuvining yana-da rivojlanishi tilda mavjud bo'lgan an'anaviy ifodalarni saqlagan holda yangi so'zlar va iboralar bilan boyitilishi kutilmoqda. O'zbek yozuvi va tilning xalqaro miqyosda yanada keng tarqalishi tilni o'qitish va o'rganishning yaratilishiga yordam beradi.

REFERENCES

1. Usmonova, M. (2024). MATNLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SEMANTIK TAHLIL QILISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 3, 44-48.
2. Mohinur, U. MULOQOTNING PRAGMATIK VAZIYAT BILAN BOGLIQ AYRIM XUSUSIYATLARI. "XXI ASRDA ILM-FAN TARAFFI ITINING RIVOJLANISHI ISTIFE BOLLARI VA ULARDA INNOVATSIYALARNING TUTGANI RHI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-ONLINE KONFERENSIYASI MATERIALLARI, 76.
3. Khayriev, U., Usmonova, M., & Turdieva, G. (2024, March). An optimal quadrature formula in the space $W_2^{(2,1)}$ of periodic complex-valued functions. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3004, No. 1). AIP Publishing.
4. Amonov, U. S., & Saparova, S. R. (2021). The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 403-407.
5. Амонов, У. С. (2016). Научный подход а. Фитрата к пословицам. *Современные тенденции развития науки и технологий*, (8-3), 5-9.
6. Ulugmurod, A. S. Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673). Online ISSN, 2249-7137.
7. Amonov, U. M. S. (2016). Folklore in the works of abdurauf Fitrat. *Theoretical & Applied Science*, (10), 9-12.
8. Amonov, U. S. (2022). Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 412-414.

9. Sultonovich, A. U. M., & Ramazonovna, S. S. (2023). Elbek–bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasining asoschisi. *Ayniy vorislari*.
10. Sultonovich, A. U. (2016). Folklore in the works of Abdurauf Fitrat. *International scientific journal «Theoretical & Applied Science», USA*, 12-15.
11. Амонов, У. С. (2022). JADIDCHILIK HARAKATI VA «BUXOROYI SHARIF» RO ‘ZNOMASI: Amonov Ulug ‘murod Sultonovich, BuxDUPI dotsenti, filologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, 5, 62-67.
12. Amonov, U. S. (2020). Новые грани творческого наследия Элбека.“. *Til va adabiyot ta’limi” jurnali*.
13. Amonov, U. S. *Eshonqulova MZ Buxoroning ikki farzandi haqida mulohazalar*.
14. Шарипова М. Б. и др. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1. – С. 24-25.
15. Baxshilloyevna M. S., Shuhratovna M. S. Description and interpretation of wedding customs in the epic" Alpomish" //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
16. Sharipova M. " Alpomish" dostoni-o'zbek xalqi tarixi badiiy ifodasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
17. Sharipova M. O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
18. Sharipova M. Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasasi (" Alpomish" dostoni misolida) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
19. Sharipova M. O'lmas an'ana va marosimlar-ma'naviyatimizning nodir xazinasasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
20. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
21. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.
22. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

23. Шарипова М. Б., Ашурова Ф. А. Межличностные отношения в дошкольном возрасте // Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 35.
24. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lim ...
25. Maxbuba Baxshilloyevna Sharipova, Laylo Mirzo Qizi Muslimova XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-dostonlarini-o-rgatishning-amaliy-ahamiyati-hamda-dolzarbligi-alpomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12.2021).